

GEOECOLOGICAL ASSESSMENT OF LANDSCAPES OF THE YAKKABOG'DARYO BASIN

Nazarov Maqsud Geldiyorivech

Rahimov Shahzod Xasan o'g'li

Karshi State University

Abstract

This article deals with one of the current issues today, namely, the geoecological assessment of the landscapes of the Yakkabog'darya basin, located in the Kashkadarya basin of the Kashkadarya region, in terms of agricultural purposes and their study of their provision with thermal and climatic resources.

Keywords: Yakkabog'darya, Tankhozdarya basin landscape, relief plastic landscape ecology landscape geoecology agricultural assessment of landscapes landscape soils soil assessment.

YAKKABOG'DARYO HAVZSI LANDSHAFTLARINI GEOEKOLOGIK BAHOLASH

Nazarov Maqsud Geldiyorivech

Rahimov Shahzod Xasan o'g'li

Qarshi davlat universiteti

Annotatsiya

Ushbu maqolada bugungi kunda dolzarb masalalardan biri bo'lgan, Qashqadaryo viloyati Qashqadaryo havzasida joylashgan Yakkabog'daryo havzasi landshaftlarni geoekologik baholash qishloq xo'jaligi maqsida baholash hamda ularning termik iqlimiy resurslar bilan ta'minlanganlik jihatdan o'rganish.

Tayanch so'zlar: Yakkabog'daryo, Tanxozdaryo havzasi landshaft, relyef plastikasi landshaft ekologiyasi landshaft geoekologiyasi landshaftlarni qishloq xo'jaligi jihatdan baholash landshaft tuproqlari tuprolarni baholash

Аннотация

В данной статье рассматривается одна из актуальных сегодня проблем, а именно геоэкологическая оценка ландшафтов Яккабогдарьинской котловины, расположенной в Кашкадарьинской котловине Кашкадарьинской области, с точки зрения сельскохозяйственного назначения и изучения их обеспеченности тепловыми и климатическими ресурсами.

Ключевые слова: Яккабогдарья, ландшафт Танхоздарьинской котловины, рельеф, пластичность ландшафта, экология ландшафта, ландшафтная геоэкология, сельскохозяйственная оценка ландшафтов, ландшафтные почвы, оценка почв.

Mavzuning dolzarbligi Daryo havzasi landshaftlarining bugungi kundagi geoekologik holati avvalgi yillardan faq qiladi. Bunga sabab aholi sonining ortishi tufayli oziq-ovqat mahsulotlari bilan tahminlab kelayotgan sug'oriladigan yerlar intensiv foydalanilayotganligi tufayli, ularda tuproq unumdorligining pasayishi, tuproq eroziyasi, sho'rlanish va boshqa salbiy ekologik jarayonlar kuchaymoqda. Bu esa, antropogen landshaftlar maydonining kengayishi, tabiiy landshaftlar maydonining kamayishidir. Xususan Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030-yilgacha barqaror rivojlanish bo'yicha dasturida belgilab berilgan muhim "maqsad" larning biri "Quruqlik ekosistemalarini muhofaza qilish va tiklash, ulardan oqilona foydalanish, o'rmonlarni ratsional boshqarish, cho'llashinishga qarshi kurashish, yerlarning degradatsiyasini to'xtatish va biologik xilma-xillikning yo'qolishini oldini olish" vazifalarini yechishga qaratilgan. Mazkur vazifalar, sug'oriladigan va haydaladigan yerlarda, shu jumladan daryo havzalari landshaftlarida ham integral tadqiqotlar asosida ekologik vaziyatni optimallashtirishni taqozo etadi.

Kirish Landshaftlarni baholash bu — Landshaftshunoslikning amaliy jihatlaridan biri, asosan, xalq xo'jaligining u yoki bu tarmog'i talablaridan kelib chiqqan holda landshaftlarni ta'riflovchi turli ma'lumotlar bilan ta'minlab turishdir. Bunday ma'lumotlarga, masalan, landshaft xaritalari, tabiiy geografik rayonlashtirish natijalari, landshaftlarning batafsil ta'rifi va boshqalar kiradi. Landshaftlarga tegishli ma'lumotlarni amaliyotga tatbiq qilishning yana bir turi landshaftlarni xalq xo'jaligining ma'lum tarmoqlari maqsadlarida baholash bo'lishi mumkin. Qishloq xo'jaligi maqsadlarida, yo'l qurilishi, shahar qurilishi, sog'liqni saqlash va dam olish (rekreatsiya) maqsadlarida qilingan ishlarda aks etadi. Landshaftshunoslikda landshaftlarni faqat baholabgina qolmasdan, balki tabiiy muhitni yaxshilash, samaradorligini oshirish, tabiiy resurslardan to'g'ri va oqilona foydalanishning ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqishda faol ishtirok etishdir. Yuqorida aytib o'tilganidek, landshaftlarni xalq xo'jaligining u yoki bu tarmog'ini rivojlantirish maqsadlarida baholash amaliy landshaftshunoslikning yo'nalishidir. Shuning uchun landshaftlarni baholash muammosi amaliy landshaftshunoslikning shu kungi asosiy muammolaridan biri hisoblanadi.

Xalq xo'jaligining u yoki bu tarmog'i maqsadlarida baholash ishlarida landshaftlarni ta'riflovchi ma'lumotlarga tayanib olib borilgan tajribalar talaygina. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi maqsadlarida baholash ishlarida buni yaqqol ko'rish mumkin. Masalan, A.A.Vidina va Y.N.Seselchuk (1961), K.I.Gerenchuk, (1965), N.V.Kopekov (1970), N.A.Kogay (1971) kabilarning ishlari bunga misol bo'la oladi. Tabiiy muhitni baholash ishlarida landshaft xaritalariga asoslanishning afzal tomonlari mavjudligini xaritashunos olimlar (K.A.Salishev, 1970) ham ta'kidlaydi. O'rta Osiyoning janubi-g'arbidagi tabiiy komplekslarni o'rgangan L.N.Babushkin va N.A.Kogaylarning (1975) fikricha, landshaftlarning tahliliga asoslangan tabiiy geografik rayonlashtirish xaritasi qishloq xo'jalik maqsadlarida tabiiy geografik komplekslarni baholashning umumilmiy geografik asosi bo'lib xizmat qilishi kerak.(1;4;6)

Asosiy qism. Yakkabog'daryosi Qashqadaryo okrugi shimoli sharqida joylashgan Yakkabog' tumanidagi daryo. Daryo havzasi tabiiy landshaftlari 2 ta tog' va tekislik landshatlari sinfiga kiradi:

Tog' landashtlari sinfi Hisor tog' tizmasi tog' oldi hududlari balandligi 1500-2500 m balandlikda bo'lgan hududlarni o'z ichiga olib Hisor tog' tizmasining shimoli-g'arbiy hamda janubi-g'arbiy qismidagi hududlarni o'z ichiga oladi. Bu hududlar landashti tog' landashftlar sinfiga kirib adir past tog' va tog' oldi, o'rtacha tog'lar landshaft turiga, kuchli va kuchsiz parchalangan landashft bo'lib, avtomorf va yarim gidromorf landshaftlar guruhiga kiradi. Yakkabog' tumani janubi sharqiy qismlari landshatft bioiqlimiy ko'rsatkichlari bo'yicha o'rmon o'tloqi dasht landshaftlari, janubiy qismida esa ozroq maydon cho'l dasht va quruq-dasht landshaftlariga turiga kiradi. Tuproq landashft bo'yicha bu hududlar qong'ir tusli hamda och bo'z tusli tuproqlar yuqoriga chiqqan sayiniz bo'z turoqlar o'tloq dasht tuproq tiplariga almashadi. Tog'larda turli o't va siyrak archa o'simliklar tog' kserofitlari bilan qoplangan hudulardir. (7;8)

Tekislik landshaft sinfi. Tekislik landashft sinfiga ko'ra chol va cho'l dast landshaftlari turi bo'lib bu hududlar Yakkabog' tumani g'arbiy va janubi-g'arbiy qismlaridir. Qarshi cho'li janubiy qismlari balandligi 400m dan 1000m gacha bo'lgan hududlari landshafti avtomorf bo'z tuproqlar qoplangan. Cho'lga hos bo'lgan o'simliklar ksemorf shuvoq va efemereoid yarim butalardan iborat antropogen landshaftlardir. (5;7;8)

Yakkabog'daryo havzasi landsaftlarini qishloq xo'jaligi jihatdan baholashda iqlimni qishloq xo'jaligi uchun qay darajada qulay yoki noqulay ekanligini aniqlash maqsadida obikor dehqonchilik uchun yetakchi qishloq xo'jalik ekini hisoblangan paxtaning talablarini asos qilib oldik. Ma'lumki, ekilgan g'o'zalarning 50 foiz qismida birinchi chanoqlarning me'yordagidek ochilishi uchun (L.N.Babushkin, 1964) quyidagicha samarali haroratlar yig'indisi kerak bo'ladi:

- eng kechpishar (uzun tolali) paxta navlari uchun 2670° ;
- o'rtapishar paxta navlari uchun – 2050°;
- eng tezpishar paxta navlari uchun – 2020°.

Baholanayotgan hududda o'rtacha ko'p yillik samarali haroratlar yig'indisining taqsimlanishini bilgan holda, biz ekilgan paxtaning 50 foiz qismida birinchi chanoqlarning ochilishi mumkin bo'lgan joylarni osongina belgilab olishimiz mumkin edi. Ammo joyning termik rejimi ham iqlimning boshqa elementlari kabi zamonda o'zgaruvchandir, ya'ni o'simliklar issiqlik bilan yaxshi ta'minlangan yillar bilan bir qatorda unchalik ta'minlanmagan davrlar ham yuz berib turadi. Bunda eng yuqori (iqlim va landshaftlarning boshqa komponentlari ham 100 ballik tizimda baholandi), ya'ni 100 ballik baho samarali haroratlari 26700 va undan yuqori bo'lgan landshaftlarda, paxtaning barcha navlari 100 foiz yillarda, vegetatsiya davrining oxirlariga kelib pishib ulguradi. Bu landshaftlarni termik sharoiti bo'yicha "eng yaxshi" deb ta'riflasak bo'ladi. Agar samarali haroratlar yig'indisi 22500 va undan ortiqroq

bo'lsa, unday landshaftlarga 85 ball berib, ularni "yaxshi" deb baholash mumkin. Samarali haroratlar yig'indisi 22500 va undan yuqori bo'lganda eng kechpishar (ingichka tolali) paxta navlari termik sharoit noqulay bo'lgan yillarda vegetatsiya davrining oxirigacha pishib ulgurmaydi. Ammo o'rtapishar va tezpishar paxta navlari 100 foiz yillarda termik resurslar bilan ta'minlanadi. 20200 samarali haroratlaryig'indisiga ega bo'lgan landshaftlar 75 ball bilan baholanib, "o'rtacha sifatli bahoga ega" desa bo'ladi. 2020 o C dan kam samarali haroratlar yig'indisiga ega bo'lgan landshaftlar "yomon" yoki "juda yomon" bahoga loyiq keladi.(1;3;8)

1-jadval Landshaftlar iqlimini (termik resurslarini) baholash

Samarali haroratlar yig'indisi	Turli paxta navlarining termik resurslari bilan ta'minlanganligi (foiz hisobida)			Baholash ballari
	Eng kechpishar navlar	O'rtapishar navlar	Eng tezpishar navlar	
2670	100	100	100	100
2250	85	100	100	85
2020	75	90	100	75
1500	60	65	75	60
1000	40	45	50	40

So'ngi yillarda iqlimning o'zgarishi yog'in miqdorining kamayishi natijasida, daryo havzasi suv sathi kamaygan landshaftlar esa qurg'oqchilikka uchramoqda. bahorikor don ekinlari vegetatsiya davrining termik resurslaridan to'la foydalana olmaydi va uning faqat birinchi yarmidagi namgarchilik yetarli bo'lgan qismidagi termik resurslardagina foydalanadi, xolos. Shuning uchun termik resurslarni hisoblaganda bahorgi havo haroratini +5° dan o'tgan kundan to tuproqda qurg'oqchilik boshlanadigan kungacha bo'lgan +5° dan yuqori haroratlar yig'indisidan foydalangan ma'quldir. Buning Yakkabog'daryo havzasi landshaftari harorat yigindisi 1900-2100° bo'lishi kerak.(3;5;7)

2-jadval Termik resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi

Tabiiy namlik bilan ta'minlanganlik darajasi (foiz, yil)	Termik resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi (foiz, yil)	
	100 va undan ortiq	50 dan 100 gacha
100 va undan ortiq	Baholash ballari: 100	70
100 dan 75 gacha	-	55
75 dan 50 gacha	-	45
50 dan kam	-	30

Bunda 100 ball olgan landshaftlar sifat jihatidan eng yaxshi hisoblanib, ularda arpa har yili termik resurslar bilan ham, namlik bilan ham ta'minlangan bo'ladi. 70 ballga ega bo'lgan landshaftlar yaxshi, 55, 45 va 30 ballga ega bo'lganlari esa o'rta, o'rtadan past va yomon sifatli hisoblanadi. Bunday baholash jarayonida ham erta (kuzgi) va kechki (bahorgi) sovuq urishlari ma'lum koeffitsiyentlar bilan tuzatish kiritish orqali hisobga olinishi mumkin.(4;6;7)

Landshaftlarning qishloq xo'jaligi uchun ahamiyatli bo'lgan va baholanishi zarur bo'lgan tomonlaridan yana biri uning tuproqlaridir. Ohangaron daryosi havzasida tarqalgan tuproqlarni baholashda biz O'zbekiston Fanlar Akademiyasining tuproqshunoslik va agrokimyo instituti hamda "Uzgirozem" tuproqshunoslari tomonidan ishlab chiqilgan metodik ko'rsatmalardan foydalandik. Shu asosda tuzilgan baholash darajalari 3-jadvalda keltirildi.(1;2;4)

Tuproqlarni bahorikor dehqonchilik uchun baholashda quyidagi 4 jadvaldan foydalanildi

3-jadval

Tuproqning nomi	Baholash ballari
Sug'oriladigan bo'z tuproqlar va bo'z tuproqlar mintaqasidagi o'tloq tuproqlar	90
Bo'z tuproqlar mintaqasidagi sug'oriladigan botqoq-o'tloq tuproqlar	70
Sug'oriladigan bo'z tuproqlar	50
Bo'z tuproqlar mintaqasidagi o'tloq tuproqlar, qo'riq yerlar	30
Yupqa qatlami, yaxshi rivojlanmagan, qayirlardagi allyuvial tuproqlar	10

4-jadval

Tuproqning nomi	Baholash ballari
Shimoliy yonbag'irlardagi och-qo'ng'ir o'tloq, to'q jigarrang va jigarrang tuproqlar	100
Janubiy yonbag'ir och-qo'ng'ir dasht va och jigarrang tuproqlar	70
To'q tusli bo'z tuproqlar	60
Tipik bo'z tuproqlar	50
Baland tog' oddiy qo'ng'ir tuproqlar	30
Eng oddiy (primitiv) tuproqlar	10
Tosh qoyalari va qurumlar	0

Xulosa

Yakkabog'daryo havzasi landshaftlari baholashda qishloq xo'jaligi jihatdan yondashildi. Shu boisdan qishloq xo'jalig landshaftlari geoekologiyasini o'rganishda shuni aytilish mumkinki landshaftlardagi holat garchi avvalgidek bo'lmasada, biroq qoniqarli. Zero qishloq xo'jaligi uchun katta ahamiyat kasb etgani bois tog' va tog' oldi

landashtlari o'zining tabiiy xususiyatlarini deyarli yo'qotmagan. Tekislik landshaftlari esa antropogen jarayonlar bois ko'proq transformatsiyaga uchragan va umumiy holat yomonlashib bormoqda. Shu boisdan tekislik cho'l va chala cho'l landshaftlarini melioratsiya qilish kanal va ariqlar qazish yordamida yer osti grunt sathlarini pasaytirish hamda havzasi atrofi landshaftlari uchun ekologik karkazlar barpo etish chora-tadbirlarini amalga oshirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Boymirzayev K.M Landshaftshunoslik asoslari O'quv qo'llanma Namangan 2023
2. Kurakova L.I. Antropogennie landshafti. –M.: Izd.Nº17, 1976.
3. Milkov F.N. “Chelovek i landshafti. Ocherki antropogennie landshaftovedeniye”. – M.: Misl, 1973.
4. Ravshanov A.X. Antropogen landshaftshunoslik O'quv uslubiy majmua Samarqand 2013 y
5. Zokirov Sh.S., Toshov X.R. Landshaftshunoslik. Toshkent.: 2016 85 -b
6. Zokirov Sh. Antropogen va amaliy landshaftshunoslik. Toshkent, 1998.
7. Камышев А.П. Анализ устойчивости природно-технических систем Северо-Западной Сибири. //Геоэкология. -М., 2000. №2. — С. 116-216
8. O'zbekiston Milliy Atlasi 1-Tom Toshkent 2020 122-124-214-216-220 betlar